UO‘K 81’34

ABDULHAMID NURMONOVNING FONOLOGIK QARASHLARI

D.A. Nabiyeva

XX asrning 50-yillaridan boshlab til hodisalarini tizimli tadqiq etish tendensiyasi kuchaydi. O‘zbek tilining ichki strukturasini sistemaviy tadqiq etishga birinchilardan bo‘lib kirishgan olim professor Abdulhamid Nurmonov edi. Olim o‘zbek tilshunosligining barcha yo‘nalishlarida, xususan, fonetika, fonologiya bo‘yicha keng miqyosli ilmiy tadqiqotlar olib bordi va bu tadqiqotlarning barchasida tilga tizimli yondashuv ustuvorlik qildi. Maqolada olimning o‘zbek tili nazariy fonetikasiga oid qarashlari xususida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *fonetika, fonologiya, fonema, tovush, fonema nazariyasi, fonologik konsepsiya, invariant-variant*.

Начиная с 50-х годов XX века усилилась тенденция системных исследований языковых фактов. Одним из основоположников системных исследований внутренней структуры узбекского языка был профессор А.Нурмонов. Учёный провел объемные исследования по всем направлениям узбекского языкознания, в частности, в области фонетики и фонологии. Во всех этих исследованиях ключевым является системный подход к фактам языка, опираясь на традиционные парадигмы исследования.

Ключевые слова: *фонетика, фонология, фонема, звук, теория фонемы, фонологические концепции, инвариант-вариант.*

XX asr tilshunosligi tilning ichki tuzilishi birliklarini tizimli o‘rganishga asoslanganligi bilan ajralib turadi. Obyektiv olam elementlarini fragmentar va ajralgan holda o‘rganishdan ko‘ra, uni yaxlitlikda, tizimli tahlil etish o‘rganilayotgan obyektning adekvat holda in’ikos etilishiga sabab bo‘ladi. Unda til hodisalarini tadqiq etishda olamning bir butunlik, sistema ekanligini va uni tashkil etuvchi elementlarning o‘zaro aloqadorlikda taraqqiy etishini, borliqdagi narsa va hodisalar, belgi-xususiyatlarning obyektivligini, substansionalligini, ziddiyatli, ikkilangan tabiatga ega ekanligini e’tirof etuvchi dialektik falsafa metodologik asos bo‘lib xizmat qildi.

O‘zbek tilshunosligida ham XX asrning 50-yillaridan boshlab til hodisalariga falsafiy yondashgan holda, ularni tizimli tadqiq etishga e’tibor qaratildi. Tilshunos olim N.Mahmudovning qayd etishicha, “O‘zbek tilshunosligi tarixida XX asrning oxirgi choragi va XXI asrning boshlari muhim davr sanaladi. Bu davr o‘tgan asrning 50-yillarida shakllangan o‘zbek ilmiy tilshunosligiga suyangan holda, sho‘rolar til siyosati ta’sirida namoyon bo‘lgan ayrim qarashlarga tanqidiy baho berish, zamonaviy tadqiq usullarini qo‘llash va o‘zbek tilining o‘ziga xos ichki xususiyatlarining yangicha nuqtai nazardan talqin etilishi bilan alohida xarakterlanadi. Professor Abdulhamid Nurmonov mana shu jarayonda o‘zining original nazariy qarashlari, beqiyos filologik bilimi, kuchli tajriba va malakasi bilan jonbozlik ko‘rsatib, o‘zbek tilshunosligining barcha sohalariga o‘zining munosib hissasini qo‘shdi. U o‘zbek tilining turli sathlari bo‘yicha qalam tebratish bilan birga, ta’lim tizimida ona tili o‘qitishni takomillashtirish borasida ham samarali xizmat qildi” [1. B. 107].

Darhaqiqat, o‘zbek tilining ichki strukturasini sistemaviy tadqiq etishga birinchilardan bo‘lib kirishgan olim, “...boy va qadimiy tilimizning murakkab muammolarini teran tadqiq etmoqni umrining muntazam mazmuni deb bilgan zabardast tilshunoslardan biri” [2. B. 3] professor Abdulhamid Nurmonov edi. Olim tilshunoslikning “an’anaviy” deb ataluvchi taraqqiyot bosqichida olingan natijalar va erishilgan yutuqlarni munosib baholagan holda, til hodisalariga yangicha metodologik asos nuqtai nazaridan qarab, o‘zbek sistemaviy tilshunosligining shakllanishi va rivojlanishi uchun benazir hissa qo‘shdi. “Sistemaviy-struktur tilshunoslikning funksional, glossematik va deskriptiv maktablarining ra-

tsional tomonlarini umumlashtirgan holda, o‘ziga xos lingvistik konsepsiya yaratdi” [3. B. 4]. A.Nurmonov o‘zbek tilshunosligining barcha yo‘nalishlarida, xususan, fonetika, fonologiya, morfologiya, sintaksis, semantika, semiotika, til tarixi, pragmalingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvosinergetika va, umuman, tilshunoslikning umumnazariy masalalari bo‘yicha keng miqyosli ilmiy tadqiqotlar olib bordi va bu tadqiqotlarning barchasida an’anaviy paradigmani inkor etmagan holda, tilga tizimli yondashuv ustuvorlik qildi. A.Nurmonov tilning tadqiq paradigmalarining tanlanishi bilish bosqichlari bilan uzviy bog‘liqligini e’tirof etib, an’anaviy tilshunoslik struktur tadqiqotlar uchun amaliy bosqich sifatida yangi nazariy xulosalar chiqarish uchun asos bo‘lib xizmat qilishini ta’kidlaydi. Olimning qayd etishicha, “an’anaviy tilshunoslik sof xronologik ma’noni, ya’ni “hozirgacha bo‘lgan tilshunoslik” ma’nosinigina bildirmaydi, balki gnoseologik ma’noda bilishning ikki bosqichiga asoslanuvchi va ontologik nuqtai nazardan til tabiati va mohiyatiga ikki xil yondashuvchi fan sifatida baholanadi va sistemaviy tilshunoslik deb yuritiluvchi tilshunoslikka qarama-qarshi qo‘yiladi. Ular til ontologiyasiga yondashuv nuqtai nazaridan ham, uni tekshirish metodologiyasi va metodlari nuqtai nazaridan ham bir-biridan farq qiladigan tilshunoslikning teng huquqli ikki yo‘nalishi sanaladi” [4. B. 6]. Bu bilan A.Nurmonov tilga sistem-struktur yondashuv asosida tilning barcha sathlarida amalga oshirilayotgan islohotlar shu vaqtga qadar mavjud ilmiy tadqiqotlarning nazariy bosqichi, tabiat va jamiyatdagi tabiiy rivojlanishning til ilmidagi ko‘rinishi ekanini ta’kidlaydi.

A.Nurmonovning dastlabki strukturalistik qarashlarini uning 1973-yilda himoyaga olib chiqilgan “O‘zbek tilidagi tovush o‘zgarishlarida ekonomiya prinsipi” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida kuzatish mumkin. Olim til tizimini struktur tadqiq etishni uning eng quyi sathi bo‘lgan fonetik-fonologik sathdan boshlagani ham bejiz emas. Ma’lumki, inson o‘zini qurshab turgan olamni bilishga intilar ekan, dastlab uni ayrim uzvlarga ajratadi. So‘ng ushbu obyektni narsa substrati, ya’ni uni tashkil etuvchi element sifatida aniqlashga harakat qiladi. Buning uchun uning o‘ziga xos xususiyatlari yig‘indisi aniqlanadi. Keyinchalik boshqa xususiyatlarning ham aniqlanishi bu xususiyatlarning saralanishiga, boshqa obyektlardagi shunday xususiyatlar bilan assotsiatsiyalanishiga imkon yaratadi. Natijada bilishning keyingi bosqichida obyekt qismlarini ajratish imkoniyati tug‘iladi va unga muayyan elementlar munosabatidan tashkil topgan murakkab butunlik, mexanizm sifatida qarash mumkin bo‘ladi. Ko‘rinadiki, butunlikni adekvat tasavvur qilish uchun uni tashkil etuvchi elementlarning mohiyatini o‘rganish zarur. Shunday ekan, butunlik sifatidagi tilning mohiyatini ham uni tashkil etuvchi elementlarning xususiyatlarini izchil o‘rganmasdan turib yoritib bo‘lmaydi. Zukko tilshunos N.Mahmudov ham “tovushlar, so‘z boyligi, grammatik tizim va ma’no-mazmun (semantika) tizimi til degan muhtasham olamning favqulodda muhim ustunlaridir, ularning loaqal birortasini inobatga olmasdan turib, bu hayratangez tilsimni ichdan ishg‘ol etib bo‘lmaydi” [2. B. 3], – deb e’tirof etgan holda, professor A.Nurmonov mazkur ustunlarning har birini ham amaliy, ham nazariy inkishof qilish borasida jiddiy tadqiqotlar olib borishni o‘zbek til ilmi taraqqiyoti uchun zarur deb bilganini ta’kidlaydi. Garchi A.Nurmonovning nomzodlik ishi sof fonetik xarakter kasb etsa-da, uning dastlabki fonologik qarashlari ham ayni shu tadqiqotida o‘z ifodasini topdi. Xususan, dissertatsiyaning kirish qismida bayon qilinishicha, “...mazmun-forma-tasavvur o‘zaro doimo dialektik aloqada bo‘ladi. Har bir nutq birligi qanday talaffuz qilinishidan qat’i nazar, o‘zining ideal formasiga ega. Ba’zan so‘zning ma’lum ma’noga ega bo‘lgan formasi nutq oqimida o‘zining o‘sha ideal formasidan bir oz o‘zgarishi, ya’ni tarkibidagi ayrim tovushlar o‘zining to‘liq artikulyatsiyasiga ega bo‘lmasligi mumkin. Ammo nutq oqimidagi bu o‘zgarishga uchragan formani tinglovchi ideal forma kabi tasavvur etadi. Chunki forma bir oz o‘zgargani bilan, o‘sha forma bilan bog‘langan ma’no saqlanadi. Natijada bu o‘zgarish kommunikatsiya uchun hech qanday qiyinchilik tug‘dirmaydi. So‘zning ideal formasi til materialidir” [5. B. 5]. Ko‘rinadiki, til va nutq birliklarining dialektik aloqasi, fonema va tovush munosabati shakl-mazmun va tasavvur munosabati asosida yoritib berilgan. Bunda nutq jarayonida muayyan nutqiy vaziyatda shaklning o‘zgarishi har doim ham mohiyatga, ya’ni tilda umumlashma obraz sifatida saqlanuvchi birlik-

ning o‘zgarishiga ta’sir etmasligi mumkin. XX asrning 90-yillarida o‘zbek tilshunosligida shu muammo tilda invariant va variant munosabati sifatida maydonga keldi va til strukturasi hamda uni tashkil etuvchi barcha birliklar shu munosabat asosida tadqiq etila boshlandi.

XX asrning o‘rtalaridan boshlab Boduen de Kurtene hamda Ferdinand de Sossyurning fonologik qarashlari asosida fonologiya termini ilmiy jamoatchilik tomonidan qabul qilinib ulgurgan, dunyo tilshunosligida bir qator fonologik maktablar ham vujudga kelgan bo‘lishiga qaramay, uning obyekti masalasida qat’iy xulosaga kelinmagan edi. A.Nurmonov ta’kidlaganidek, “Garchi fonologiya termini ko‘pchilik tilshunoslar tomonidan e’tirof etilsa-da, ammo bu termin ostida o‘rganilishi lozim bo‘lgan obyekt masalasida bir xillik kuzatilmadi. Tilshunoslarning juda ko‘p qismi fonologiya termini ostida nutq tovushlarining funksional tomonini, ayrimlari, aksincha, artikulyatsion-akustik tomonini tushunadilar. Har ikki holatda ham fonologiya fonetikaga qarama-qarshi qo‘yiladi” [6. B. 5]. Shuning uchun tilshunoslikda, xususan, o‘zbek tilshunosligida nutq tovushlari va ularni o‘rganuvchi soha xususida yuzaga kelgan ayrim chalkashliklarning sabablarini tahlil etish barobarida, nutq tovushlarining uch aspektini ajratgan holda, tovushlarning fizik va fiziologik aspekti fonetika uchun material bo‘lishini, funksional aspekti esa fonologiya uchun material ekanligini to‘g‘ri ta’kidlagan. Bu xususda olim shunday yozadi: “Nutq tovushlarini o‘rganadigan ikki predmet emas, balki ikki tadqiqot aspekti mavjuddir. Fonologiya fonetikaning yuqoriroq bosqichi sifatida haqiqiy lingvistika predmetiga aylandi va grammatika bilan bir qatorda til strukturasini o‘rganish uchun xizmat qila boshladi. Har qanday fonolog bir vaqtning o‘zida fonetistdir. Chunki fonologiya oppozitsiyalari konkret tovushlarga asoslanadi. Shu bilan birga, har qanday fonetist ma’lum ma’noda fonolog hamdir. Chunki fonetika tadqiqotchisi har qanday tovushlarni emas, balki nutq tovushlarini, ularning ma’lum tildagi farqli belgilarini o‘rganadi. Fonetika va fonologiya o‘zaro chambarchas bog‘langan. Ularning asosiy o‘rganish obyekti bitta. Birinchisi eng kichik nutq birliklarini, ikkinchisi esa shu nutq birliklarining farqli belgilarini o‘rganadi. Demak, ular o‘zlarining obyekti jihatidan emas, balki bir obyektning turli o‘rganish aspekti ekanligi bilan farq qiladi” [6. B. 7].

A.Nurmonov B.de Kurtene, F.de Sossyur, L.V.Shcherba kabi tilshunoslarning fonologik qarashlariga tayangan holda, fonema va uning nutqiy voqelanish shakli bo‘lgan tovush o‘rtasidagi dialektik aloqani aniq tasavvur qilgan. U fonemani til sistemasidan alohida o‘rin olgan mustaqil birlik sifatida e’tirof etib, “Fonema – so‘z va morfemalarni shakllantiradigan va ularning ma’nolarini farqlash uchun xizmat etuvchi, boshqa mayda bo‘lakka bo‘linmaydigan tilning eng kichik tovush birligi” [6. B. 7] deb ta’riflaydi. Olimning fonemaga nisbatan bunday qarashlari Praga, Qozon va Leningrad fonologiya maktablarining fonologik konsepsiyasiga muvofiq keladi.

Dunyo fonologiya ilmida Qozon, Praga, Leningrad va Moskva fonologik maktablari alohida e’tirof etiladi. Bu maktablar tadqiq obyekti nuqtayi nazaridan mushtarak bo‘lsalar-da, fonema maqomini belgilash mezonlariga ko‘ra o‘zaro farqlanadi.

Fonema maqomini belgilashda ikki xil yondashuvni kuzatish mumkin. Birinchi yondashuvga muvofiq, fonema til sistemasida alohida mustaqil birlik sifatida mavjud bo‘lib, so‘z va morfemalarni fonetik jihatdan shakllantirish va ularning ma’nosini farqlash uchun xizmat qiladi. Qozon, Praga va Leningrad fonologik maktablarining fonologik konsepsiyalari shu yondashuv asosiga qurilgan. Xususan, Praga lingvistik to‘garagining asoschilaridan biri N.Trubetskoyning ta’kidlashicha, “Fonema – u yoki bu til nuqtayi nazaridan boshqa mayda bo‘laklarga bo‘linmaydigan, fonologik qimmatga ega bo‘lgan farqlovchi belgilar majmuasidir” [7. B. 41–43].

Qozon maktabi asoschisi B.de Kurtene fonemaga quyidagicha ta’rif beradi: “Psixikamizda barqaror mavjud bo‘lgan “tovush” tasavvurini, ya’ni bir paytda amalga oshuvchi talaffuz va undan hosil bo‘ladigan taassurotlarning murakkab yig‘indisini fonema deb ataymiz” [8. B. 13]. Ta’kidlash lozimki, ilmiy faoliyati davomida B.de Kurtenening fonema haqidagi qarashlari o‘zgarib bordi. Shu sababli uning ishlarida fonemaning turli xil ta’riflari uchraydi. “Boduen de Kurtene ilmiy faoliyatining Qozon davrida fonema tovushning inson ongidagi “psixik iz”i

sifatida emas, balki real talaffuz qilinuvchi tovushlarning abstraksiyasi, modeli, invarianti, qurilmasi (konstrukti) sifatida baholanadi va “bevosita sezgi a’zolarimizga ta’sir qiluvchi real tovushlarning qo‘shimcha belgilaridan tozalangan umumlashmasi”, deb ta’riflanadi [9. B. 201]. Olimning fonema haqidagi bu ikki qarashi fonologiya ilmida yuqorida tilga olingan fonologik maktablar tomonidan rivojlantirilgan turli xil konsepsiyalarning maydonga kelishiga sabab bo‘ldi. Professor A.Nurmonovning fonologik qarashlari B.de Kurtenening keyingi izlanishlari asosida shakllandi va rivojlantirildi.

A.Nurmonov B.de Kurtenening fonologik qarashlarini tahlil qilish asosida quyidagi xulosaga keladi: 1) fonemaning murakkab birlik ekani; 2) uning eng kichik birliklardan (xususiyatlardan) tashkil topishi; 3) eng kichik birliklardan tashkil topgan butunlik sifatida tilda yaxlit holda funksiyalashishi; 4) eng kichik birliklardan tashkil topgan fonemaning til sistemasida munosabatlar (korrelyatsiya) a’zosi sifatida yashashi; 5) fonemaning bevosita kuzatishda berilgan tovushlarning lingvistik umumlashmasi, abstraksiyasi ekani; 6) fonemaning real ko‘rinishi uning antropofonik (artikulyatsion-fiziologik) namoyon bo‘lishi ekani [10. B. 60–61].

Shuni alohida qayd etish lozimki, garchi fonema tushunchasi tilshunoslik ilmiga G‘arb tilshunosligidan kirib kelgani e’tirof etilsa-da, olimning Sharq tilshunosligida bu tushuncha qadimdan mavjud bo‘lganini iftixor bilan tilga oladi. Tilni butunlik sifatida tushunib, uni tashkil etuvchi elementlar va ularning nutqiy voqelanish xususiyatlari haqida aniq tasavvurga ega bo‘lgan olim Sharq mutafakkirlarining asarlarini tahlil qilar ekan, o‘zbek tilshunosligida o‘rta asrlardayoq fonologiya ilmi chuqur ildiz otganligini e’tirof etadi. A.Nurmonovning qayd etishicha, “Sharq tilshunosligida, garchi fonema termini bilan nomlanmagan bo‘lsa ham, lekin ma’no farqlash uchun xizmat qiladigan eng kichik tovush tipi haqidagi tushuncha mavjud edi. Hind tilshunoslari, turkiyshunoslar, xususan, Mahmud Koshg‘ariy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburlar tovushning ma’no farqlash tomoniga katta ahamiyat berganlar” [6. B. 27]. Ushbu fikrlar isbotini tilshunos olim o‘zining “O‘zbek tilshunosligi tarixi” asarida bayon etadi. Olim ushbu asarida Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Koshg‘ariy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi allomalarning ilmiy meroslarini o‘rganar ekan, o‘rta asrlardayoq o‘zbek tilshunosligida bugungi til falsafasi uchun g‘oyat muhim bo‘lgan bir qator tushunchalarga asos solinganini, tilshunoslikning umumiy masalalari, uning mundarijasi belgilanganini ta’kidlaydi. Xususan, Ibn Sinoning tilshunoslikka oid “Asbob” asarini tahlilga tortish jarayonida olim tomonidan r-r’, l-l’ kabi tovushlarning bir umumiylikning ikki xil ko‘rinishi sifatida ajratilishini A.Nurmonov bevosita kuzatishda turli o‘zgarishlar bilan talaffuz qilinuvchi variantlar bilan bu variantlarning abstrakt bosqichdagi umumlashmasining (invariantning) farqlanishi ekanligini ta’kidlaydi [11. B. 21].

Professor A.Nurmonov o‘zbek tili fonologiyasining shakllanishi va rivojida Mahmud Koshg‘ariyning nomini alohida tilga oladi. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit-turk” asarini chuqur o‘rganar ekan, u, avvalo, hozirgi tilshunoslikda fonema atamasi bilan yuritiluvchi fonologik birlikni, tovush tipini juda yaxshi farqlaganini, shuning uchun ham eng kichik fonetik birlikning fonologik funksiyasiga – so‘z tarkibida kelib, ma’no farqlash vazifasiga ega bo‘lishiga katta e’tibor berganini, tovush tiplarini belgilashda tovushlarning ayni shu vazifasini asosiy mezon qilib olganini va bu mezon asosida turkiy tillarning fonemalar miqdorini aniqlaganini e’tirof etadi [11. B. 2].

Shu bilan birga, zukko tilshunos XX asr boshlarida Amerika strukturalistlari tomonidan distributsiya deb atalib, fonema va uning variantlarini aniqlashning bosh tamoyili sifatida ajratilgan hodisa XV asrdayoq buyuk mutafakkir Alisher Navoiy tomonidan “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida tahlilga tortilgani va fonemalarni ajratishda tovushlarning so‘z tarkibidagi bir xil qurshovda biri o‘rnida ikkinchisining almashinib, ma’no farqlash belgisiga ega bo‘lishini bosh mezon sifatida ajratganini alohida g‘urur va iftixor bilan qayd etadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlar Sharq tilshunosligida ham I.A.Boduen de Kurtenegacha bo‘lgan davrda til hodisalariga umumiylik-xususiylik dialektikasi asosida yondashilib, cheksiz xususiyliklardan umumiyliklarni hosil qilish va shu umumiyliklar asosida har bir tilning fonemalar miqdorini aniqlash ko‘nikmasi mavjud ekanligi-

ni klassik adabiyotlar tahlili misolida asoslab bergan professor A.Nurmonovning chuqur fonologik bilim sohibi ekanligidan dalolatdir.

A.Nurmonovning asosiy fonologik qarashlari uning 1990-yilda chop etilgan “O‘zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi” risolasida yorqin aks ettirilgan. Olim dastlab fonetikani fonologiyadan farqlash zaruratini belgilab, fonologiyani tilshunoslikning alohida bo‘limi sifatida fonema va ularning farqlovchi belgilarini o‘rganuvchi soha deb bilgani holda, har bir tilning fonologik sistemasini, har bir fonemaning farqlovchi belgilarini faqat uning shu tildagi konkret talaffuzi asosida tadqiq qilish lozimligini e’tirof etadi. Uning qayd etishicha, nutq tovushlarini o‘rganadigan ikki predmet emas, balki ikki tadqiqot aspekti mavjuddir [3. B. 187–188]. Darhaqiqat, fonema cheksiz talaffuz qilinuvchi tovushlarning akustik-artikulyatsion belgilarini umumiy (takrorlanuvchi) va xususiy (betakror) belgilarga ajratish va shu umumiy belgilar asosida ularni ma’lum sinflarga birlashtirish – tiplashtirish yo‘li bilan hosil qilinuvchi abstrakt birlik bo‘lish bilan birga, nutqda real talaffuzga ega tovushlar orqali voqelanadi. Demak, fonologiya tovushlar ega bo‘lgan fonetik belgilarning funksional jihatlarini o‘rganuvchi fandir.

Til strukturasining shakliy elementi hisoblangan fonema diskret birlik bo‘lib, o‘xshash tovushlarning barqaror belgilari umumlashmasi hisoblanadi. Shuning uchun A.Nurmonov nutq faoliyatida tovush va tovushlar tizimi haqida fikr yuritib, quyidagilarni bayon qiladi: “Nutq tovushlari o‘zida uch aspektni birlashtirgan murakkab hodisadir: birinchidan, u talaffuz a’zolari bilan boshqariladigan markaziy nerv sistemasi faoliyatidir. Shuning uchun uni inson organizmidan tashqari o‘rganish mumkin emas. Nutq tovushlarining bu tomoni uning fiziologik (yoki biologik) aspekti hisoblanadi. Ikkinchidan, nutqiy faoliyat bo‘lganidan u tabiatdagi har qanday tovush kabi akustik (yoki fizik) xossaga ega. Uning mazkur tomoni akustik (yoki fizik) aspekt sanaladi. Uchinchidan, nutq tovushlarining bosh vazifasi kommunikatsiya vositasi bo‘lib xizmat qilishdir. Bu eng muhim funksional aspektni (sotsial yoki lingvistik aspekt ham deyiladi) tashkil etadi” [3. B. 187]. Ko‘rinadiki, nutq tovushlarining fiziologik va akustik aspektlari amaliy bilish bosqichi jarayonida aniqlanadi va bu jarayon fonetikaga bog‘lanadi. Tovushlarning funksional aspekti esa idrokiy bilish bosqichida aniqlanadi va fonologiya bilan bog‘lanadi. A.Nurmonov buni shunday izohlaydi: “fonetika va fonologiya o‘zaro chambarchas bog‘langan. Ularning asosiy o‘rganish obyekti bitta. Birinchisi eng kichik nutq birliklarini, ikkinchisi esa shu nutq birliklarining farqli (differensial) belgilarini o‘rganadi. Demak, ular o‘zlarining obyekti jihatidan emas, balki bir obyektning turli o‘rganish aspekti ekani bilan farq qiladi” [3. B. 188].

A.Nurmonov o‘z risolasida dunyo tilshunoslik ilmida mavjud fonologik maktablar va ulardagi fonologik konsepsiyalarni alohida-alohida tahlilga tortib, ularning umumiy va farqli jihatlarini ajratadi va “barcha fonologik konsepsiyalarda fonema lingvistik birlik sifatida tan olinadi. Bunday konsepsiyalarning tayanch nuqtasi Boduen de Kurtenening fonologik nazariyasi hisoblanadi. LFM fonemani so‘z va morfemadan ajralgan abstrakt birlik sifatida talqin etsa, MFM unga so‘z va morfemalarning tarkibiy elementi sifatida yondashadi.

Praga lingvistik to‘garagi fonemani abstrakt birlik sifatida talqin etishda LFMga yaqin tursa, pozitsion, kombinator variantlar, variantlar neytralizatsiyasi kabi masalalarda MFMga yaqin turadi” [3. B. 194], deb xulosa chiqaradi.

A.Nurmonovning fonologik qarashlari Praga lingvistik to‘garagining qarashlari bilan uyg‘un ekanligini risoladagi o‘zbek tili fonologik tizimida mavjud unli va undoshlarning funksional tahlili misolida kuzatish mumkin.

Risolada o‘zbek tilining fonologik sathidan o‘rin olgan fonemalar tizimiga alohida e’tibor qaratiladi. Unda o‘zbek adabiy tilidagi unli va undosh fonemalarni tasniflash mezonlari belgilab berilgan. Bunda tovushlarning fizik-fiziologik belgilariga fonologik nuqtayi nazardan e’tibor qaratilgan bo‘lib, fonologik jihatdan tovushlarga xos belgilarni ularning paradigmatik va sintagmatik munosabatlariga asoslangan holda fonologik muhim, asosiy va fonologik nomuhim, chegara belgilarga ajratiladi. Unda tovushlarning fonologik muhim belgilari tasnif uchun asos bo‘lishi, fonologik nomuhim belgilari esa tovushlar sintagmatikasi uchun zarur ekanligi e’tirof etiladi. Haqiqatan, fonetik tasnif fonemalarning barcha artikulyatsion-akustik xususiyatlariga asoslansa, fonologik tasnif shu xusu-

siyatlar ichidan asosiysini tanlab oladi: ularga funksional jihatdan qarab, farqlanish belgilarini topadi. Fonemalarni artikulyatsion-akustik jihatdan farqlashga xizmat qiluvchi alomatlar farqlanish belgilari hisoblanadi. Fonema ana shunday belgilarning yig‘indisi sifatida tushuniladi. Farqlanish belgilari esa fonemalarni so‘z va morfema tarkibida bir xil sharoitda solishtirish orqali namoyon qilinadi.

Yuqorida qayd etib o‘tilganidek, tarkibidagi elementlarning xususiyatlarini va ular o‘rtasidagi munosabatlarni izchil o‘rganmasdan turib butunlikning mohiyatiga yetish mumkin emas. Shu sababli A.Nurmonov ham o‘zbek tilining fonologik sistemasidan o‘rin olgan unli va undoshlar mikrosistemasini alohida-alohida tahlilga tortgan, chunki har bir tilning o‘ziga xos mikrosistemasini tashkil etuvchi unli va undoshlarni ajratish uchun asos bo‘luvchi belgilar majmuasi turlicha bo‘lishi mumkin.

Fonologik yondashuv asosida o‘zbek tilining unli fonemalarini tahlil etar ekan, unlilarning tasnif mezonlarini belgilaydi. Bu mezonlarni belgilashda tilshunos Leningrad fonologik maktabidagi kabi fonemalarni bir-biriga zid qo‘yib, qarama-qarshi munosabatdagi a’zolarning bir qator belgilari orasidan farqlovchi va farqlanmaydigan (nodifferensial, irrelevant) belgilarini ajratib, farqlovchi belgilarga asoslanadi. Fonologik tasnif va tahlilda fonemalarning paradigmatikasi va sintagmatikasi bilan bog‘liq. Har bir fonemaning muayyan tilning fonologik sistemasidagi boshqa fonema bilan assotsiativ munosabati, ularning bir-biri bilan ongdagi qiyosi fonemalar paradigmatikasini hosil qiladi. Fonemalarni paradigmatik planda o‘rganish orqali qiyoslanayotgan fonemalarning farqlovchi (differensial) va farqlanmaydigan (nodifferensial) belgilari aniqlanadi. Shunday qilib, paradigmatik munosabat orqali fonemalarning qanday belgilardan tashkil topgan umumlashma ekanligi belgilanadi. Sintagmatik jihatdan esa ularning nutq jarayonidagi turli xil artikulyatsion-akustik o‘zgarishlari o‘rganiladi.

Olimning qayd etishicha, “Tilning uch darajadagi (yuqori, o‘rta va quyi) ko‘tarilish va lablanish-lablanmaslik belgilari kuchli pozitsiyadagi unli fonemalarning asosiy (konstitutiv) belgilari hisoblanadi. Unlilar qatori (old qator, o‘rta qator va orqa qator) so‘z shakl tarkibidagi pozitsiyaga bog‘liq belgi bo‘lgani uchun unlilarning asosiy belgilari qatoriga kirmaydi” [6. B. 28]. Shuningdek, olim yozadiki, “Tilning ko‘tarilish darajasiga ko‘ra o‘zbek tilining unli fonemalari oppozitsiyasi “uch pog‘onali”, lablanish belgisiga ko‘ra ikki sinfli to‘rtburchak sistemadir.

Keng	o	a	
o‘rta keng (o‘rta tor)	o‘	e	
tor	u	i”	[3. B. 196].

Shunday mezon asosida o‘zbek tilining undosh fonemalar tizimi ham tahlilga tortilgan.

Umuman aytish mumkinki, A.Nurmonov o‘tgan asrning 90-yillaridayoq o‘zbek tilining tovushlar tizimini dialektik falsafaning umumiylik-xususiylik, mohiyat-hodisa, imkoniyat-voqelik kategoriyalari asosida fonologik nuqtayi nazardan tahlilga tortish til tizimining boshqa sathlarini ham obyektiv tushunishga, umuman, tilning mohiyatini yoritishga yo‘l ochib berishini to‘g‘ri ta’kidlagan. Shu tamoyilga asoslangan holda, o‘zbek tilining ichki struktur elementlarini tadqiq etib, o‘zbek tilshunosligini yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘tardi. Bu esa A.Nurmonovni haqli ravishda novator tilshunos sifatida e’tirof etishga imkon beradi.

Adabiyotlar:

1. *Маҳмудов Н., Искандарова Ш., Саидхонов М.* Фанимиз заҳматкашлари. А.Нурмонов // Ўзбек тили ва адабиёти, 2012. – № 2. – Б. 107–109.

2. *Маҳмудов Н*. Сўз илмига садоқатнинг савоби // Нутқ маданияти ва ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. Профессор А.Нурмонов хотирасига бағишлаб ўтказилган республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Андижон, 2015. – Б. 3-7.

3. *Нурмонов А*. Танланган асарлар. 3 жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – 232 б.

4. *Nurmonov A*. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo‘nalishlari. – Toshkent: Ta’lim, 2009. –160 b.

5. *Нурмонов А.* Ўзбек тилининг фонетик ўзгаришларида экономия принциплари: Фил.фан. канд... диссертацияси. – Тошкент, 1973. – 132 б.

6. *Нурмонов А*. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. Тошкент: Ўқитувчи, 1990. – 45 б.

7. *Трубецкой Н.С*. Основы фонологии. / Перевод с немецкого А.А.Холодовича. 2-е издание. – Москва: Аспект пресс, 2000. – 352 с.

8. *Бодуэн де Куртенэ А.И.* Введение в языковедение. – Санкт-Петербург: литография Богданова, 1909. – 186 с. [Электронный ресурс]. URL: https://www.prlib.ru/item/863342. (Дата обращения: 13.02.2023.)

9. *Бодуэн де Куртенэ А.И.* Избранные труды по общему языкознанию. Т. I. – Москва: Издательство академии наук СССР, 1963. – 384 с.

10. *Нурмонов А.* Танланган асарлар. 3 жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – 340 б.

11. *Нурмонов А*. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 232 б.

ABDULKHAMID NURMONOV’S PHONOLOGICAL VIEWS

Diloro A. Nabieva[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2023. 1(69). 75-82.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Key words: *phonetics, phonology, phoneme, sound, phoneme theory, phonological concept, invariant-variant.*

In Uzbek linguistics, since the 50s of the 20th century, the tendency to systematically study linguistic phenomena has increased with a philosophical approach. Scientist Professor A. Nurmonov was one of the first to systematically study the internal structure of the Uzbek language. The scientist conducted large-scale scientific research in all areas of Uzbek linguistics, in particular phonetics, phonology, morphology, syntax, semantics, semiotics, history of linguistics, pragmalinguistics, cognitive linguistics, linguosynergetics and, in general, general theoretical issues of linguistics, and in all these studies he denied the traditional paradigm. otherwise, a systematic approach to language took precedence. The article discusses the scientist’s views on the theoretical phonetics of the Uzbek language.

A. Nurmonov’s phonological comparisons were reflected in the pamphlet “Phonology and Morphology of the Uzbek Language” published in 1990. The treatise pays special attention to the system of phonemes from the phonological level of the Uzbek language. It defines the classification criteria of vowel and consonant phonemes in the Uzbek literary language. In this, attention is paid to the physical-physiological signs of sounds from the phonological point of view, and the phonological signs characteristic of sounds are divided into phonologically important, basic and phonologically insignificant, border signs based on their paradigmatic and syntagmatic relations. It is recognized that the phonologically important signs of sounds are the basis for classification, and the phonologically insignificant signs are necessary for the syntagmatics of sounds. In fact, if the phonetic classification is based on all the articulatory-acoustic properties of phonemes, the phonological classification selects the main

ones among these properties: it looks at them functionally and finds signs of differentiation. Symptoms that serve to distinguish phonemes in articulatory-acoustic terms are signs of differentiation. A phoneme is understood as a set of such signs. Signs of difference are shown by comparing phonemes in word and morpheme structure in the same conditions.

In general, it can be said that already in the 90s of the last century, A. Nurmonov analyzed the sound system of the Uzbek language based on the categories of generality-specificity, essence-event, opportunity-reality of dialectical philosophy from the point of view of phonological discourse, which is a way to objectively understand other levels of the language system, and to illuminate the essence of the language in general. correctly stated that it will reveal. Based on this principle, he researched the internal structural elements of the Uzbek language and raised Uzbek linguistics to a new stage of development. This allows us to rightly recognize A. Nurmonov as an innovative linguist.

References:

1. Mahmudov, N. (et.al) (2012). Fanimiz zahmatkashlari. A.Nurmonov. [Workers of our science. A. Nurmonov]. *O‘zbek tili va adabiyoti*. No 2. Pp. 107-109.

2. Mahmudov, N. (2015). So‘z ilmiga sadoqatning savobi [The reward of devotion to the science of words]. Nutq madaniyati va o‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari [Current issues of speech culture and Uzbek linguistics]. Proceedings of the Republican scientific-practical conference dedicated to the memory of Professor A.Nurmonov. Andijan. Pp. 3-7.

3. Nurmonov, A.N. (2012). *Tanlangan asarlar* [Selected works]. In 3 volumes. Vol. 1. Tashkent: Akademnashr.

4. Nurmonov, A.N. (2009). *Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo‘nalishlari* [Structural linguistics: roots and directions]. Tashkent: Ta’lim.

5. Nurmonov, A.N. (1973) *O‘zbek tilining fonetik o‘zgarishlarida ekonomiya prinsiplari* [Principles of economy in the phonetic changes of the Uzbek language]. The dissertation for the candidate of philological sciences. Tashkent.

6. Nurmonov, A.N. (1990). O*‘zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi* [Phonology and morphonology of the Uzbek language]. Tashkent: O‘qituvchi.

7. Trubeckoj, N.S.(1960). *Osnovy fonologii* [Fundamentals of phonology]. Moscow: Izdatelstvo inostrannoj literatury.

8. Boduen de Kurtene, A.I. (1909). *Vvedenie v yazykovedenie* [Introduction to Linguistics]. Sankt-Peterburg: litografiya Bogdanova. [Online]. URL: https://www.prlib.ru/item/863342. (Date of access: 13.02.2023.)

9. Boduen de Kurtene, A.I. (1963) *Izbrannye trudy po obshchemu yazykoznaniyu* [Selected works on general linguistics]. Vol. I. Moscow: Izdatelstvo akademii nauk SSSR.

10. Nurmonov, A.N. (2012) *Tanlangan asarlar* [Selected works]. In 3 volumes. Vol. 2. Tashkent: Akademnashr.

11. Nurmonov, A.N. (2002) *O‘zbek tilshunosligi tarixi* [History of Uzbek linguistics]. Tashkent: O‘zbekiston.

Muallif haqida ma’lumot:

NABIYEVA Diloro Abduhamidovna – filologiya fanlari doktori, Andijon davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasi professori. E-mail: prof.nurmonov@rambler.ru